



MOSH YETISHTIRISH MAYDONLARI VA HOSILDORLIGINI TAXLILY O'RGANISH

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

dosent., q. x. f. f. d (PhD), Agrar qo'shma fakulteti Farg'ona davlat universiteti

idrisovhusanzon@gmail.com

Annotasiya: Ushbu tezisdagi mosh ekinini duyon dexqonchiligidagi umumiy maydonlari, etishtiriladigan xududlar, mamlakatlar, hosildorlik ko'rsatkichlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek O'zbekistonda mosh etishtirishning xolati, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar, respublikada mosh ekinini maydonlari, o'rtacha hosildorligi kabilar viloyatlar kesimida tahlil etilgan

Аннотация: Этот тезис предоставляет информацию об общей площади посевных площадей маша, посевных площадях, странах и показателях продуктивности. В нем также анализируется ситуация с растениеводством в Узбекистане, реформами, осуществляемыми в этой области, посевными площадями в республике и средней урожайностью по регионам.

Annotation: This thesis provides information in the total cultivated area of mung bean, cultivated areas, countries and productivity indicators. It also analyzes the situation with crop production in Uzbekistan reforms carried out in this area sown areas in the republic and average productivity in the regions.

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, oziq-ovqat xavfsizligi va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan global muammolar yil sayin dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yigirma-o'ttiz yilda er kurrimizda aholi soni shiddat bilan o'sib borishi kuzatilmoqda. Bu esa aholi o'sib borishi bilan birga ularning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini ham qondirishni talab etadi. Shuningdek, iqlimning keskin ravishda o'zgarishi bilan kechayotgan turli xil ekologik muammolar ham jaxon ommasining e'tiborida bo'lib kelmoqda.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bergan so'nggi statistik ma'lumotlarga qaraganda, er yuzi aholisini 800 mln kishisi to'yib ovqatlanmasligi, 2,5 milliard odamning kunlik ovqatlanish ratsionida makro va mikroelementlarning etishmasligi va 1,5 milliard odamga ochlik xavf solishi qayd etilgan[2].

Aholini arzon va sifatli oziq-ovqatga mahsulotiga bo'lgan talabini qondirishda uchun tarkibida oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan dukkakli ekinlar xususan moshni etishtirish xajmlarini ko'rpaytirish orqali bir qator dolzarb masalalarga echim topiladi. Birinchidan, dukkakli don ekinlari tarkibida yuqori miqdorda oqsil saqlaydi. Ikkinchidan, ekologik toza mahsulot etishtiriladi. va uchinchidan, tuproqlarni unumdorligi saqlash va oshirish imkoniyati ko'payadi.

Muammoning o'rganilgan darajasi Mosh donini tarkibida 21-28 % oqsil bo'lib, bug'doy va javdar donlaridan 1,5-2 baravar, to'yimliliigi bo'yicha don ekinlaridan 1,5 baravar, kartoshkadan 3,5 va karamdan 5 baravar yuqori turadi. Moshning 100 kilogrammi doni 42 ozuqa birligiga teng bo'lib, tarkibida 5-6 kg xazm bo'ladigan protein saqlashi bilan



xarakterlanadi. Mutaxassislarining fikriga va tajribalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, takroriy qilib o'stirilgan moshning gektaridan o'rtacha 15-15,5 sentnerdan don hosili olinganda uning ozuqa birligi gektariga 1991,1 kg tashkil etadi.

Yer sharida dukkakli don ekinlarining 60dan ortiq turidan foydalanib kelinadi. Oqsil miqdori va sifati bo'yicha xayvon oqsillaridan qolishmaydi. Oziq-ovqat maxsulotlari tayyorlashda juda katta o'ringa ega bo'lgan ekinlardir. Dukkakli ekinlarni etishtirish xajmi so'nggi yillarda 1,5 martaga ko'paygan. Soxa olimlarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda hozirda 71,6 mln tonna mahsulot etishtirilgan. Ekin maydonlari bo'yicha eng katta maydonni loviya oilasiga kiruvchi ekinlar: loviya, moshga taaluqli bo'lib, jami 29.2 mln gektar maydonga ekiladi. Keyingi o'rinlarni no'xot (13,5 mln ga), xashaki gorox (11,3 mln ga) va gorox (6,4 mln ga) egallaydi. Taxlillardan ko'rinib turibdiki, mosh ekin maydonlari bo'yicha ma'lumotlar etarlicha mavjud emas. Bu borada adabiyotlarda kengroq yoritish maqsadga muvofiqdir [3.4.6].

Tadqiqot maqsadi. Dunyoda dukkakli don ekinlarning umumiy maydonlar, hosildorligini mamlakatlar bo'yicha o'rganish, shuningdek respublikamizda mosh etishtirishni hozirgi holatini tadqiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari. Keyingi yillarda dunyoda dukkakli ekinlar xususan mosh etishtirish geografiyasi keskin ravishda kengayib bormoqda. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, er yuzida dukkakli ekinlar 135 mln gektar maydonga ekiladi. Dukkakli –don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon xajmi jixatidan jahonda soyadan (dunyo bo'yicha soya maydoni 74 mln gektarga yaqin) keyin ikkinchi o'rinda (25 mln gektarga yaqin) ni egallab, uchinchi o'rinda no'xot (dunyo jami 10mln gektarga yaqin) turadi [5].

Hozirda mosh asosan Janubiy, Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Sharqiy Afrikada mamlakatlarida etishtirilmoqda. Ammo keyingi yillarda G'aribiy Afrika, Markaziy Osiyo, Yevropaning O'rta er dengizi xududlarida, va Janubiy Amerikada mamlakatlarida ham ushbu ziroat kengayib bormoqda. Dunyoda mosh etishtiradigan asosiy davlatlar Xindiston (3,8 mln ga), Myanma (1,2 mln ga), Xitoy (1,6mln ga), Indoneziya (1,1 mln ga), Pokiston (0,178 mln ga), Bangladesh (0,175 mln ga) bo'lib, ekin maydonlari ulushi bo'yicha Xindistonda 15%, Xitoyda 6,4%, Myanmada 4,8%, Indoneziyada 4,4 % ushbu mamlakatlar xissasiga to'g'ri keladi. Hosildorlik ko'rsatkichlariga bo'yicha eng yuqori hosil Myanmada davlatida kuzatilib, 13,2 s/ga, keyingi o'rinlarda Bangladeshda 10,3 s/ga, Pokistonda 7,3 s/ga tegishli bo'lib, eng past hosildorlik Hindistonda qayd etilib, 0,4 s/ga tashkil etgan [2].

Respublikamizda olib borilayotgan jadal isloxotlar natijasida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xukumatimiz tomonidan asosiy ekin sifatida va kuzgi bug'doydan bo'shaydigan maydonlarda takroriy qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishga oid bir nechta qaror va farmoyishlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 y 29 martdagi 259-sonli "2019 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot etishtirishning prognoz xajmlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda belgilanishicha asosiy ekin sifatida moshni respublikamiz bo'yicha jami 20638 gektar maydonga, kuzgi bug'doydan bo'shaydigan jami 1091630 gektar maydonning 824350 gektariga yoki 75,5% ga takroriy ekin ekish rejalashtirilgan, shundan qariyb 284067 gektarga dukkakli ekinlarni ekish



belgilangan. Dukkakli ekinlaridan qariyb 221 ming gektar yoki 77% maydonida moshetishtirilgan. Viloyatlar kesimida mosh ekilgan maydonlar quyidagicha; asosan Xorazmda 6682 gektar yoki 33%, Namangan viloyatida 4098 gektar yoki 19,8%, Toshkent viloyatida 2937 gektar yoki 14,2%, Farg'ona viloyatida 2685 gektar yoki 13,05, Jizzax viloyatida 2326 gektar yoki 11,2%, Suxondaryo viloyatida 270 gektar yoki 1,3% va Qoraqalpog'iston Respublikasida 1500 gektar yoki 7,2% bo'lib, eng yuqori hosildorlik Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida qayd etilib, 20,0s/ga va 15,6 s/ga tashkil etgan. Respublikamiz bo'yicha asosiy ekin sifatida jami 32371 ming tonna mosh etishtirilgan bo'lib, o'rtacha hosildorlik 15,6 s/gaga to'g'ri kelgan. Kuzgi bug'doydan so'ng takroriy ekin mosh mamlakatimizda jami 221 ming gektar maydonda etishtirilib, o'rtacha hosildorlik 12,5s/ga bo'lib, 265200 tonna mosh etishtirilgan[1].

Xulosa Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan respublikamizda takroriy ekin sifatida dukkakli-don ekinlari etishtirilishi alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning pirovard natijasida ichki bozorni sifatli va arzon narxdagi mahsulotlar bilan ta'minlashga, shuning barobarida mamlakatimiz eksport saloxiyatini yanada oshirishga erishilmoqda. Demak, kelajakda aholini to'yimli oziq-ovqatga bo'lgan talabiniqondirish uchun mosh judda katta ahamiyatga ega bo'lgan ekindir, shuningdek dukkakli ekinlar mosh inson oziqlanishi uchun oqsil va vitaminlar manbaidir.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori 259 sonli "2019 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot etishtirishning prognoz xajmlari "to'g'risida 29 mart 2019 yil.

2. Zernobobovye pitatelnie zerna ustoychivogo budushogo. Prodovolstvennaya i selskoxozyaystvennaya organizatsiya Ob'edinenix Natsiy (FAO). 2016 god. S-32-34.

3. Zernobobovye Rossii Prodovolstvennaya i selskoxozyaystvennaya organizatsiya Ob'edinennix Natsiy. Moskva, 2017. S-4-11.

4. Pilov A.P Loviya va mosh. Toshkent-1978y. 8-9 betlar.

5. Sug'oriladigan maydonlarda mosh etishtirishning intensiv texnologiyasi bo'yicha tavsiyanoma. Toshkent-2019 y. 4-5 betlar.

6. "O'zbekistonda ekishga tavsiya etilgan kuzgi bug'doy, dukkakli don ekinlarning mahalliy va xorijiy navlari hamda ularni parvarishlash" bo'yicha tavsiyalar. Andijon- 2019 y. 99-103 betlar.

7 Xalima, A., Xusanjon, I., & Abdulvosid, S. (2022). O 'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolis aureis piper*) ning o 'sishi, rivojlanishi va don hosildorligi. *Research and education*, 1(2), 373-381.

8 Xusanjon, I., & Abduxolik, K. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko 'chatzorida o 'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.

9 Abdujabborovich, I. X., Ozodbek, A., Nodirbek, X., & Abrorbek, a. (2022). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarining simbiotik faoliyatiga ekish muddati va me 'yorining ta'sirini o 'rganish. *Science and innovation*, 1(1), 615-624.



10 Abdujabborovich, I. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*Phaseolus aureus Piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.

11 Abdujabborovich, i. X. (2022). Qozoqi anorning biologik xususiyatlari. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(13), 396-400.

12 Idrisov, X. A., & o'g'li Soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda soya etishtirish texnologiyasini takomillashtirish. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 286-295).

13 Abdujabborovich, i. X., & Gofurovna, r. F. (2022, may). Soya (*Glycine hispida* l) ning biologik xususiyatlari va tashqi muxit omillari. In *e conference zone* (pp. 1-5).

14 Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 286-290.

15 Abdujabborovich, i. X., & o'g'li, x. A. M. (2022). Sholi seleksiyasi bo 'yicha o 'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahliliy o 'rganish. *Science and innovation*, 1(d3), 276-281.

16 Abdujabborovich, i. X., o'g, p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalaridan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.

17 Abdujabborovich, i. X., & Mirzamaksudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo 'yicha o 'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.

18 Idrisov, x. A. (2022, june). Osiyo loviyasi-mosh (*phaselus aureus piper.*)–biologik xususiyatlari. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 9, pp. 144-148).

19 Abdujabborovich, i. X., o'gli, u. X. I., qizi, a. D. A., qizi, y. M. N., & ogli, m. A. A. (2022). Tipik bo'z tuproqlar sharoitida mosh (*rhaseolus aureus piper*) navlarini tadqiq etish. *Science and innovation*, 1(d2), 160-165.

20 Abdujabborovich, i. X., & teshaboyev, a. (2022). Soyaning kolleksiya ko'chatzoridan samarali va maqsadli foydalanishning ilmiy ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 286-290.

21 Idrisov, x. A., & karimov, a. A. (2022, july). Mosh (*phaselus aureus piper.*) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyatimosh (*phaselus aureus piper.*) Dan yuqori hosil olishda agrotexnik omillarning ahamiyati. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 11, pp. 106-111).

22 Xusanjon, i., & abduxolik, k. (2022). Moshning yangi navlarini yaratishda seleksiya ko 'chatzorida o 'tkazilgan tadqiqotlar. *Research and education*, 1(4), 50-56.

23 Abdujabborovich, i. X., o'g, p. J. G. A., o'g'li, e. K. E., & o'g, d. O. N. M. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratishda nav namunalaridan samarali va maqsadli foydalanishning ahamiyati. *Science and innovation*, 1(d3), 269-275.

24 Abdujabborovich, i. X., & mirzamaksudavich, b. R. (2022). Soyaning yangi navlarini yaratish bo 'yicha o 'tkazilgan tadqiqotlar. *Science and innovation*, 1(1), 776-785.



25 Idrisov, x. A., & o'g'li soliyev, a. M. (2022, may). Sug 'oriladigan maydonlarda mosh (phaselus aureus piper.) Navlarining tavsifi. In *international conferences on learning and teaching* (vol. 1, no. 7, pp. 17-23).

31. Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, Xalbaev Akbar Namozovich. (2022). Soyaning seleksiya ko'chatzoridagi nav namunalari qimmatli-xo'jalik xususiyatlarini o'rganish. *Models and methods in modern science*, 1(12), 22-25. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7032183>.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7032183>

32. Isag'aliyev, M., Obidov, M., & Matholiqov, R. (2019). Morphogenetic and biogeochemical features of the medicinal capparispinosa. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(4), 46-49. <https://scholar.google.com/citations>

33. Matholiqov, R. Argic dasturidan foydalangan holda qishloq xo'jalik erlarini tahliliy o'rganish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2022 yil*. <https://scholar.google.com/citations>

34. Mamatojiev, Sh. I., Tojimamatov, D. D. U., Kamolov, Z. V. U., & Xoliqov, M. B. U. (2020). FAKTORI, VLIYaYuIIE NA PROICESSY XSPANENIYa ZERNA I NA POKAZATELI KACHESTVA. *Universum: texniceskie nauki*, (12-4 (81)), 75-78.

35. Mamatojiev, Sh. I., Tojimamatov, D. D. U., Kamolov, Z. V. U., & Xoliqov, M. B. U. (2020). PREIMUIIESTVA NOVOY SISTEMY PRI PRIEMKE ZERNA. *Universum: texniceskie nauki*, (12-2 (81)), 96-99.

36. Davronov, Q. A., & Xoliqov, M. B. O' (2021). The effect of grain moisture on grain germination during grain storage. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* (11-5), 418-421.

37. Nazarovna, A. X., & Abdujabborovich, I. X. (2022). O 'TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSH (Rhaseolis aireis Piper) NING O 'SISHI, RIVOJLANISHI VA DON HOSILDORLIGI. *Research and education*, 1(2), 373-381.

38. Idrisov, X. A., & Madalova, M. (2022). MASHA (PHASELUS AUREUS PIPER.) I AGROTEXNIKA VOZDELIVANIYa. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(11), 77-86. izvlecheno ot <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/4399>
Idrisov, X. A., & Madalova, M. (2022). MASHA (PHASELUS AUREUS PIPER.) I AGROTEXNIKA VOZDELIVANIYa. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(11), 77-86. izvlecheno ot <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/4399>

39. Idrisov, X. A., Qashqaboeva, C. L. T. L., & Xalbaev, A. N. (2022). SOYANING NAZORAT KO'CHATZORIDAGI NAV NAMUNALARINI QIMMATLI-XO'JALIK XUSUSIYATLARINI TAHLILIIY ORGANISH. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(5), 134-139.

40. Idrisov, X. (2022). MOSH: RESEARCH, EXPERIENCE AND RESULTS. *Science and Innovation*, 1(7), 182-186.

41. Idrisov, X., Matxoliqov, R. Z., & Xoliqov, M. (2022). KUZGI BUG 'DOYDAN KEYIN EKILGAN MOSH NAVLARINING SIMBIOTIK FAOLIYATINI O'RGANISH. *O'rta Osiyo ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, 1(2), 51-56.



42. Ibragimov, O. O., & Idrisov, X. A. (2022, October). OLMA NAVLARINI NAV TAVSIFINI O'RGANISH ASOSIDA TAXLIL ETISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 4, pp. 20-27).
43. Atabaeva, X. N., & Abdujabborovich, I. X. (2022). MOSH NAVLARI BARG YUZASI RIVOJLANISHIGA AGROTEKNIK OMILLARNING TA'SIRI. *Science and innovation*, (Special Issue), 540-544.
44. Idrisov, X. (2022). MOSH: TADQIQOT, TAJRIBA VA NATIJA. *Science and innovation*, 1(D7), 182-186.
45. Idrisov, X. (2022). EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINI MOSH (Rhaseolis aireis Riper) NAVLARI POYA BALANDLIGI VA HOSILDORLIGA TA'SIRINI O'RGANISH. *Science and innovation*, 1(D7), 176-181.
46. Abdujabborovich, I. X., Maxliyoxon, A., Muslima, A., & Gavhanso, A. (2022, November). TOSHKENT VILOYATI O'TLOQI BOTQOQ TUPROQLARI SHAROITIDA SOYA (GLYCINE HISPIDA L) NING KOLLEKSIYA KO'CHATZORIDA O'TKAZILGAN TADQIQOT. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 98-104).
47. Abdujabborovich, I. X., & Teshaboyev, A. (2022). UDK: 633.853. 52 SOYANING YANGI ISTIQBOLLI NAVLARINI YARATISH NATIJALARINI TAXLILY O'RGANISH. *Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke*, 1(3), 8-14.
48. Idrisov, H., & Madalova, M. (2022). ANALYTICAL STUDY OF THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF A VARIETY OF MUNG BEAN (RHASEOIS AIREIS PIPER). *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(11), 97-101.
49. Idrisov, X., & Xalbaev, A. (2022). SOYANING SELEKSIYA KO'CHATZORIDAGI NAV NAMUNALARINI QIMMATLI-XO'JALIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH. *Models and methods in modern science*, 1(12), 22-25.
50. Nazarovna, A. X., & Abdujabborovich, I. X. (2022). O'TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MOSH (Rhaseolis aireis Piper) NING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA DON HOSILDORLIGI. *Research and education*, 1(2), 373-381.